

2022-yil 21-oktabr

“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” tanlovining taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi



O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yanada oshirish, uni milliy qadriyat sifatida targ‘ib qilish hamda davlat tiliga oid muammolarni hal etish maqsadida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 33 yilligi hamda O‘zbek tili bayrami munosabati bilan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” respublika tanlovi g‘oliblari e‘lon qilindi.

Tanlov tashkilotchilari - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Ma‘naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Innovatsion rivojlanish vazirligi.

Tanlov uchta yo‘nalishda o‘tkazildi. “O‘zkimyosanoat” AJ ikkinchi yo‘nalish - “Davlat tilida ish yuritish yo‘lga qo‘yilgan eng yaxshi tizim” sifatida vazirlik, idora, xo‘jalik birlashmalari orasida faxrli

2-o'rinni egalladi. "O'zkiyosanoat" AJga diplom, esdalik sovg'alari, shuningdek, 20 million so'm pul mukofoti topshirildi.

Quvonarlisi, "Farg'onazot" AJ aloqa sexi boshlig'i Vladimirovich Oleg Zdobnikov o'zbek tiliga bo'lgan cheksiz hurmati va mehri uchun Vazirlar Mahkamasining maxsus faxriy yorlig'i hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.







"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qadring-baland-bolsin-ona-tilim-tanloving-taqdirlash-marosimi>